



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ABSTRAKT OTLARNING QIYOSIY- SEMANTIK VA TARJIMAVIY XUSUSIYATLARI

Abduraxmonov Xudoynazar Abdirayimovich

Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida abstrakt otlarning struktur-semantik, grammatik hamda tarjimaviy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Abstrakt otlarning har ikki til tizimidagi o‘rni, ularning sanaladigan/sanalmaydigan shakllari, artikl kategoriyasi bilan munosabati, birlik va ko‘plikda qo‘llanishi hamda konversiya jarayonidagi ishtiroki yoritiladi. Shuningdek, badiiy va publitsistik matnlar misolida abstrakt otlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tarjima jarayonida mavhum tushunchalarning ekvivalentligi, sinonimik almashinuvi va grammatik transformatsiyalari tahlil qilinib, ikki til o‘rtasidagi tipologik farqlarning ifodalanish mexanizmlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillarida abstrakt otlarning qo‘llanish qonuniyatlarini chuqurroq anglashga hamda tarjima amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: abstrakt ot, mavhumlik kategoriyasi, qiyosiy tahlil, struktur-semantik xususiyat, grammatik transformatsiya, konversiya, artikl kategoriyasi, tarjima ekvivalentligi, uslubiy xususiyat, pragmatik ma’no.

СРАВНИТЕЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПЕРЕВОДЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АБСТРАКТНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Абдурахмонов Худойназар Абдираимович

Каршинский государственный технический университет, доцент

Аннотация

В данной статье представлен сравнительный анализ структурно-семантических, грамматических и переводческих особенностей абстрактных существительных в английском и узбекском языках. Осветлены роль абстрактных существительных в обеих языковых системах, их исчисляемые/неисчисляемые формы, связь с категорией артикля, использование в единственном и множественном числе, а также участие в процессе конверсии. Также рассмотрены стилистические и прагматические возможности абстрактных существительных на примере литературных и журналистских текстов. Проанализированы эквивалентность, синонимический обмен и грамматические трансформации абстрактных понятий в процессе перевода, а также выявлены механизмы выражения типологических различий между двумя языками. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию моделей использования абстрактных существительных в английском и узбекском языках и совершенствованию переводческой практики.

Ключевые слова: абстрактное существительное, категория абстракции, сравнительный анализ, структурно-семантическая особенность, грамматическая трансформация, преобразование, категория артикля, эквивалентность перевода, стилистическая особенность, прагматическое значение.

COMPARATIVE-SEMANTIC AND TRANSLATIONAL FEATURES OF ABSTRACT

NOUNS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abduraxmonov Xudoynazar Abdirayimovich
Karshi State Technical University, Associate Professor

Abstract

This article provides a comparative analysis of the structural-semantic, grammatical and translational features of abstract nouns in English and Uzbek. The role of abstract nouns in both language systems, their countable/uncountable forms, relationship with the article category, use in singular and plural, and participation in the conversion process are highlighted. Also, the stylistic and pragmatic possibilities of abstract nouns are considered on the example of literary and journalistic texts. The equivalence, synonymous exchange and grammatical transformations of abstract concepts in the translation process are analyzed, and the mechanisms of expression of typological differences between the two languages are identified. The results of the study serve to provide a deeper understanding of the patterns of use of abstract nouns in English and Uzbek and to improve translation practice.

Keywords: abstract noun, category of abstraction, comparative analysis, structural-semantic feature, grammatical transformation, conversion, article category, translation equivalence, stylistic feature, pragmatic meaning

Abstrakt otlar til tizimida inson tafakkuri, ma'naviyati va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim lisoniy birliklar hisoblanadi. Ular moddiy predmetlarni emas, balki tushuncha, holat, jarayon, sifat, his-tuyg'u va ijtimoiy-madaniy kategoriyalarni nomlaydi. Shu bois abstrakt otlar har bir xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va nutqiy an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turli tillarda o'ziga xos shakllanish va qo'llanish xususiyatlariga ega. Ingliz va o'zbek tillarida abstrakt otlar grammatik tuzilishi, kategoriyaviy belgilari va sintaktik imkoniyatlari jihatidan sezilarli farqlarga ega. Ingliz tilida abstrakt otlar sanaladigan/sanalmaydigan shakllarda, artikl bilan yoki artiklsiz qo'llanishi, birlik va ko'plik shaklida kelishi mumkin. O'zbek tilida esa mavhum otlar, asosan, birlik shaklida qo'llanadi va artikl kategoriyasi mavjud emas. Shuningdek, ingliz tilida otlarning konversiya yo'li bilan fe'l yoki sifat vazifasida qo'llanishi keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida bu hodisa cheklangan nutqiy modifikatsiya sifatida namoyon bo'ladi.

Abstrakt otlar masalasi tilshunoslikda ot turkumining semantik tasnifi doirasida izchil o'rganilib kelinmoqda. An'anaviy grammatik yondashuvlarda ular turdosh otlarning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi va belgi, holat, jarayon, his-tuyg'u hamda ilm-fan nomlarini ifodalovchi birliklar sifatida izohlanadi. O'zbek tilida yaratilgan ingliz tili grammatikasiga oid qo'llanmalarda ham mazkur yondashuv ustuvor. Jumladan, M. G'apbarov va R.Qosimovalarning "Ingliz tili grammatikasi" asarida, abstrakt otlar atoqli va turdosh otlar tasnifi doirasida qisqacha sharhlanadi hamda honesty, bravery, love, history kabi misollar orqali ularning ma'no doirasi ko'rsatib beriladi. Biroq manbada abstrakt otlarning ichki semantik guruhlari, ularning struktur-semantik tasnifi va tarjimaviy xususiyatlari maxsus tadqiq etilmagan. Bu holat mavzuning chuqurroq va tizimli o'rganilishini zarur etadi.

Semantik nazariya doirasida abstraktlik kategoriyasi kognitiv yondashuv asosida ham talqin etilgan. George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, abstrakt tushunchalar insonning konkret tajribasi asosida konseptuallashtiriladi. Ushbu yondashuv abstrakt otlarning semantik tabiatini ochishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur nazariya asosida abstrakt birliklarning milliy-madaniy tafakkur bilan bog'liqligi ham izohlanadi.

O'zbek akademik tilshunosligida mavhum otlar semantik belgilari asosida tavsiflangan. Xususan, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va boshq. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida mavhum otlar sezgi orqali idrok etilmaydigan tushunchalarni ifodalovchi birliklar sifatida ko'rsatiladi. Biroq ushbu manbalarda abstrakt otlarning qiyosiy-tipologik va tarjimashunoslik aspektlari keng yoritilmagan.

Ingliz tilshunosligida abstrakt otlar grammatik kategoriyalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, sanaladigan/sanalmaydigan oppozitsiyasi, artikl kategoriyasi, birlik-ko'plik shakllarining abstrakt otlarga tatbiqi ingliz grammatik tizimining muhim jihatlari sifatida baholanadi. O'zbek tilida esa artikl kategoriyasining mavjud emasligi va mavhum otlarning asosan birlik shaklida qo'llanishi qiyosiy tahlil uchun tipologik asos yaratadi. Tarjimashunoslik tadqiqotlarida abstrakt otlarning ekvivalentligi va transformatsiyasi alohida e'tibor markazida turadi. Bir tildagi ikki mustaqil abstrakt tushunchaning boshqa tilda bitta leksik birlik orqali ifodalanishi (masalan, umid va ishonch – hope) semantik umumlashtirish yoki sinonimik soddalashtirish sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon tillar grammatikasi va leksik tizimidagi farqlar bilan izohlanadi.

Shuningdek, stilistika va funksional tilshunoslik doirasida abstrakt otlarning nutq uslublariga ko'ra qo'llanish darajasi o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy uslubda abstrakt otlar ekspressivlik va obrazlilikni ta'minlovchi vosita sifatida keng qo'llanadi, publitsistik uslubda esa umumlashtiruvchi va konseptual xarakter ustunlik qiladi. Biroq ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida abstrakt otlarning foiz ko'rsatkichlari va funksional yuklamasini qiyosiy statistik tahlil qilish ishlari yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mazkur maqola badiiy va publitsistik matnlarda abstrakt otlarning semantik hajmi, sinonimik almashinuvi, grammatik moslashuvi hamda kontekstual talqini tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotning dolzarbligi ingliz va o'zbek tillarida abstrakt otlarning struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish, ularning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarini aniqlash hamda samarali tarjima strategiyalarini belgilash zarurati bilan belgilanadi. Mazkur masalaning ilmiy yoritilishi tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Abstrakt otlar ingliz tilida ham boshqa tillarda bo'lgani kabi milliy madaniyat, ma'naviyatga bog'liq bo'lgan tushunchalarni nomlab keluvchi so'zlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Ot turkumiga mansub so'zlar, aslida, ingliz nutqida tuziladigan gaplarning, deyarli, hammasida uchraydigan, fe'llar bilan ifodalanadigan harakatlarning bajaruvchisi, o'rin-joy nomlari kabilarni ifodalovchi vositalar sifatida qo'llanma va darsliklarda o'rganiladi. Masalan, o'zbek tilida yaratilgan ko'p sonli ingliz tili grammatikasiga oid qo'llanmalardan biri bo'lgan "Ingliz tili grammatikasi" (M.G'apporov, R.Qosimova, 2019) kitobida ot so'z turkumi uchun 35 sahifa ajratilgan (107-142-betlar). Garchi ot turkumini o'rganish uchun salmoqli sahifalar ajratilgan bo'lsa-da, ushbu qo'llanmada otlarning asosiy qismini tashkil etuvchi abstrakt otlar maxsus o'rganilishi rejalashtirilmagan.

"Ingliz tili grammatikasi"ning "Atoqli va turdosh otlar" bo'limida "abstrakt otlar belgi, harakat, holat, his, ko'rinish, fan, san'at va boshqalarni ifodalashi"[1] mumkinligi aytib o'tilgan. Bunday otlar sirasiga *honesty (sofdillik)*, *bravery (jasurlik)*, *sleep (uyqu)*, *darkness (qorong'ulik)*, *love (sevgi)*, *work (ish)*, *winter (qish)*, *history (tarix)*, *music (musiq)*, *mathematics (matematika)* kabi so'zlarni qo'shish mumkinligi ta'kidlanib, namuna sifatida keltirilgan. Nazarimizda, sanalgan abstrakt otlarning har birini abstrakt otlarning aynan qaysi guruhiga kirishi haqida ma'lumot berilishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida sanalgan abstrakt otlar qo'llanmada turdosh otlarning bir turi sifatida qayd etilgan.

Ingliz tilida otlar turli vazifalarni bajarishi mumkin. Bu holat o'zbek tilida ba'zi

o‘rinlardagina, masalan, otlarning sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishidagina kuzatishimiz mumkin. Masalan, “oltin yoshlik birikuvida voqelangan oltin leksemasining “sariq tusli qimmatbaho noyob metallni ifodalovchi ot” sememasidagi “sariq tusli”, “metall”, “ot” semasi butkul so‘ngan bo‘lib, “kamyob”, “qimmatbaho” semasi kuchaygan va “ot” vazifa semasi “sifat” ma‘no bo‘lakchasiga aylangan holda namoyon bo‘lgan. Biroq bundagi vazifa semasining o‘zgarishi nutqiy hodisa bo‘lgani sababli u sememaning ikkinchi turkumga ham xosligini ko‘rsatmaydi, balki boshqa turkumga xos vazifasini bajarishi deb tushunmoq lozim. Demak, leksemaning ko‘chma ma‘noda qo‘llanishidagi ma‘noviy modifikatsiyasini “semema semasining o‘zgarishi” deb baholash mumkin”[2]. Ingliz tilida esa otlar fe‘l (predloglar yordamida), sifat kabi vazifalarni, bemalol, bajarishi mumkin. Masalan: water (suv) – to water (sug‘ormoq), love (sevgi) – to love (sevmoq); winter (qish) – winter month (qish oyi), autumn (kuz) – autumn month (kuz oyi). Bunda muayyan otlardan aniq harakatlarni ifodalovchi fe‘llar yasalsa, mavhum otlar mavhum holatni yoki inson tafakkurida his qilish mumkin bo‘lgan harakat va holatlarni ifodalovchi fe‘llar hosil qilinadi (qiyoslang: fear (qo‘rquv) – to fear (qo‘rqmoq); salt (tuz) – to salt (tuzlamoq)).

Badiiy uslub matnlari tarjimasidagi murakkabliklar nasriy asarlarda ham kuzatiladi. To‘g‘ri, “nasr (arab. – ko‘mak, zafar), proza – adabiy tur; vazn va qofiya singari she‘riyatga xos unsurlarga ega bo‘lmagan yozma nutq mahsuli”[3]. Shuningdek, “nasriy nutq yangi paydo bo‘lganida, she‘riy nutq singari, jimjimador va balandparvoz bo‘lgan bo‘lsa, XX asrning 1-choragiga kelib, ortiqcha hashamlardan xoli bo‘la boshladi, realistik tasvirning qonun-qoidalariga tobora bo‘ysunib borganligi”[3] dan ham nasriy asarlarda nazmiy matnlarga nisbatan kamroq mavhum otlar qo‘llanishini anglash mumkin. Quyida keltirilgan o‘zbekcha nasriy matn va uning ingliz tiliga o‘girilgan muqobilida mavhum otlarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

“O‘sha lahzalarda ikki yosh uyqusizlikdan qizargan, ammo ertangi kunga umid, ishonchdan porlagan ko‘zlari bilan quyoshni kutib olishayotgan edi”[4].

Ushbu matnda to‘rt o‘rinda mavhum ot qo‘llangan (*uyqusizlik, kun, umid, ishonch*). Bu mavhum otlar hikoya qahramonlarining ruhiy holatini ifodalash uchun qo‘llangan. Keltirilgan matndagi qo‘llangan so‘zlardan biri – *lahza* alohida qo‘llanganda, aslida, mavhum ot hisoblanadi. Ammo aynan shu matnda *lahza* so‘zi *o‘sha* olmoshi bilan birga *o‘sha lahzada* qo‘shma ravishini hosil qilgan. Chunki *o‘sha*, shu, har olmoshlari payt bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘shilib qo‘shma ravishlar hosil qilishi mumkinligi darslik va qo‘llanmalarda qayd etilgan. Masalan, “So‘z qo‘shib ravish yasash. Bu yo‘l bilan qo‘shma, juft va takroriy ravish yasaladi... 2) shu/o‘sha ko‘rsatish olmoshi + *kun/zamon/vaqt/on/asno* oti: shu kuni, o‘sha zamon, shu zahoti, shu onda, shu asnoda”[5]. To‘g‘ri, sanalgan o‘sha ko‘rsatish olmoshi bilan birikib qo‘shma ravish hosil qilishi mumkin bo‘lgan so‘zlar orasida *lahza* oti mavjud emas. Lekin bu so‘z ro‘yxatda keltirilgan *on* so‘zi bilan ma‘nodoshlik hosil qilishini unutmaslik kerak. Buni *lahza* yoki *on* so‘zlarining lug‘atdagi izohi orqali ham dalillash mumkin:

“ЛАХЗА [кўз очиб юмгунчалик вақт, он, сония] кўз очиб юмгунча ўтадиган вақт; он. Лаҳза ичида. Лаҳза ўтмасдан. Бир лаҳзада. Кўз очиб-юмгунча ўтган дам – қиммат. Бир лаҳза мазмуни бутун бир баҳор. Ғ.Ғулом”[6].

Nasriy matnda qo‘llangan mavhum otlarning barchasi to‘ldiruvchi vazifasida kelgan va hokim bo‘lakka kelishik shakllari (chiqish, jo‘nalish va o‘rin-payt) vositasida birikkan. Mavhum otlarning ikkitasi faoliyat-jarayon va paytni bildiruvchi mavhum otlar bo‘lsa, yana ikkitasi his-tuyg‘uni ifodalovchi mavhum otlardir. Hikoyadan olingan parcha ingliz tiliga mutaxassis tomonidan quyidagicha tarjima qilingan:

“At that moment, the two young people were blushing from insomnia, but they were waiting for the sun with their eyes shining with hope for the future”[7].

Inglizcha matnda *moment* (*lahza*), *insomnia* (*uyqusizlik*), *hope* (*umid*) va *future* (*kelajak*) mavhum otlari qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekcha matn bilan qiyoslanganda *moment* oti ro'yxatga qo'shilgan bo'lsa, *umid* va *ishonch* otlari sinonim so'zlar sifatida baholanib bitta so'z – *hope* vositasida tarjima qilingan. Tarjima lug'atidagi *hope* so'zi uchun keltirilgan lug'at maqolasida ham buni kuzatishimiz mumkin:

“**hope** 1. *n* ishonch, umid, orzu; 2. *v* umid qilmoq, ishonmoq”[8].

Matndagi bu o'zgarishlar fikr ifodalash uchun ingliz tilidagi eng maqbul vositalardan foydalanish, tillar grammatikasi orasidagi farqlarning namoyon bo'lishi natijasidir. Masalan, *o'sha lahza* qo'shma so'zi tarkibidagi *lahza* so'zi yuqoridagi matnda ot turkumiga mansub bo'la olmagan holda, shu so'zning tarjimasi (*moment*) ingliz tilida ot turkumiga mansub so'z sifatida baholanadi. Ingliz tilidagi matnda mavhum otlar hokim so'zlarga *from*, *for* kabi predloglar va *with* bog'lovchisi vositasida birikkan. Tarjima dasturi matnni o'zbek tiliga quyidagicha o'giradi: “*Bu vaqtda ikki yosh uyqusizlikdan qizarib ketgan, ammo kelajakka umid bilan ko'zlari charaqlab quyoshni kutishardi*”.

Ta'kidlanganidek, ingliz tiliga o'girish jarayonida muallif mazmunni saqlagan holda, ayrim shakliy o'zgarishlarga qo'l urgan. Ana shu o'zgarishlar mashina tarjimasida ham aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, badiiy uslubda mavhum otlarning qo'llanish darajasini umumiy so'zlarga nisbatan 20-25% atrofida baholash mumkin.

Ta'kidlash joizki, tub leksemalarning ma'nosini izohlash yasama terminlar ma'nosini ochishdan ko'ra murakkabroq. Chunki yasama leksemalarda yasaliish asosidan kelib chiqib ma'noni izohlash unchalik qiyin emas. Tub so'zlar esa leksema sifatida aynan qaysi semasiga ko'ra leksemalik yukini ko'tarib turganini izohlash ko'p jildli izohli lug'atlarda lug'at maqolasining ixchamlik tamoyiliga asoslanishiga rioya qilishda tadqiqotchidan hushyorlikni talab qiladi.

Ingliz va o'zbek abstrakt otlarining tuzilishi, shakllanish jarayonlari va qo'llanish shakllaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil o'tkazilishi har bir tildagi mavhum otlarni shakllantiruvchi lingvistik xususiyatlar va madaniy ta'sirlarni yoritishga xizmat qiladi. Abstrakt otlarning ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjima ekvivalentligi o'rganilishi turli xil madaniy va lingvistik kontekstlar tarjima tanlovlari va mavhum tushunchalarni samarali yetkazish uchun ishlatiladigan strategiyalarga ta'sir qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi abstrakt otlarga qaratilgan lug'atlar yoki lug'atlar kabi keng qamrovli leksik resurslarni ishlab chiqish uchun manba hosil qilinishi va bu manbalar mavhum otlarning tuzilishi, ma'nolari va qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot berib, til o'rganuvchilarga, tarjimonlarga va tadqiqotchilarga yordam berishi shubhasiz. Qolaversa, ingliz va o'zbek tillarida abstrakt otlarning qo'llanilishiga ta'sir etuvchi sotsiolingvistik omillar hamda madaniyat, ijtimoiy me'yorlar va kontekstual o'zgaruvchanlik kabi omillar turli kommunikativ vaziyatlarda mavhum otlarni tanlash va talqin qilishga ta'sir qilishi o'rganilishi tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga xizmat qiladi.

Ingliz tilida abstrakt otlar turli xil yondashuvlar asosida guruhlashtirilgan: donalab sanaladigan / sanalmaydigan; artikl bilan qo'llanadigan / qo'llanmaydigan; mavhumlikning turli darajalarini (minimal, o'rta, yuqori) ifodalaydigan, leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra. Bunda dastlabki uch holat ingliz tilining o'ziga xos grammatik jihatlari bilan bog'liq va faqat shu tilga taalluqli bo'lsa, to'rtinchi holat hamma tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham joriy qilinishi mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi abstrakt otlarning tarjimasida ikki tilning turli oilalarga mansubligi, shunga asosan ular orasida leksik-grammatik farqlar juda ko'pligini hisobga olish lozim. Bu farqlar ingliz tilida otlarning kelishiklarsiz qo'llanishi; mavhum otlar bilan qo'llanadigan artikl kategoriyasining o'zbek tilida mavjud emasligi; ingliz tilida mavhum otlar birlikda va ko'plikda qo'llanishi mumkin bo'lgan holda, o'zbek tilida ular faqat birlikda

qo'llanishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi abstrakt otlar tarjimasini shuni ko'rsatadiki, turli nutq uslublarida ularning qo'llanish darajasi turlicha. Masalan, publitsistik uslubda abstrakt otlarning umumiy so'zlarga nisbatan miqdori 15-20 foizni tashkil etsa, badiiy uslubda bu miqdor 20-25 foizga qadar oshadi. Bu har bir nutq uslubining o'ziga xosligi, ularning har biri uchun tanlanadigan so'zlarga bog'liq. Badiiy uslubda abstrakt otlarning salmoqliligi bu uslubda badiiy tasvir vositalarining boshqa uslublarga nisbatan ko'proq qo'llanishi bilan bog'liq. Abstrakt otlarning tuzilishi, tarjimasini va qo'llanilishini o'rganish orqali ikkala tilning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini chuqurroq va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish ishlari olib borildi. Bu bilim til o'rganish, tarjima amaliyoti va turli kontekstlarda samarali muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Ingliz va o'zbek tillarida abstrakt otlarning tuzilishi, tarjimasini va qo'llanilishini o'rganish til dinamikasini har tomonlama tushunishga va abstrakt tushunchalardan samarali ifodalashga yordam berdi. Bu holat ingliz va o'zbek tillarida til foydalanuvchilari va o'rganuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondiradigan keyingi tadqiqotlar, izlanishlar va lingvistik resurslarni rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi.

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida abstrakt otlarning struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi hamda ularning grammatik, pragmatik va uslubiy jihatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, abstrakt otlar har ikki tilda belgi, holat, jarayon va tushunchalarni ifodalashda muhim semantik qatlamni tashkil etadi, biroq ularning grammatik ifodalanishi va qo'llanish doirasi tipologik farqlarga ega. Xususan, ingliz tilida abstrakt otlar artikl va son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lsa, o'zbek tilida ular asosan birlik shaklida va artiklsiz qo'llanadi. Tarjima jarayonida esa semantik umumlashtirish, konkretlashtirish hamda grammatik transformatsiyalar kuzatiladi. Shuningdek, abstrakt otlarning badiiy va publitsistik matnlardagi funksional yuklamasi turlicha bo'lib, ular nutqning ekspressivligi va konseptual mazmunini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, tadqiqot abstrakt otlarning qiyosiy-tipologik va tarjimaviy xususiyatlarini aniqlash orqali ularning til tizimidagi o'rni va funksional imkoniyatlarini yanada chuqurroq ochib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'apponov M., Qosimova R., Ingliz tili grammatikasi, - Toshkent: Turon-Iqbol. 2019. – B.108.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2010. – B. 108.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nasr>.
4. Olov so'zlar. She'rlar va hikoyalar. – Toshkent: Adabiyot. – B.253
5. Mengliyev B.R., Xoliyorov O., Abdurahmonova N., O'zbek tilidan universal qo'llanma, - Toshkent: Akademnashr, 2018, 6-nashr. – B.203.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildlik, 1-jild, tuzatilgan 2-nashri, – Toshkent: O'zME, 2020, – B.493.
7. Olov so'zlar. She'rlar va hikoyalar. – Toshkent: Adabiyot. – B.252.
8. Butayev Z., Inglizcha-o'zbekcha o'zbekcha-inglizcha lug'at, – Toshkent: O'zbekiston. 2018. – B.151.
9. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи. 1980.
10. Ҳожиёв А., Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати, – Тошкент: Ўқитувчи. 1974.